


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 6 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 6 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 6

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 6



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-6>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

IQTSOD

- 1. Boltayev B. Mixliyev O.**
QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....7
- 2. Djumabayeva Sh.**
O‘ZBEKISTONDA NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARINING IJTIMOY-DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI.....11
- 3. Raximov Matqurbon Ravshanbek O‘g‘li.**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHNING ZARURATI.....19
- 4. Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li.**
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH YO‘LLARI.....24
- 5. Курбанова Дилфуза Баходировна.**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛЕЙ СФЕР УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ.....27
- 6. Egamberdiyev Shoxruxbek Davronbekovich.**
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....33

FILOLOGIYA

- 1. Jo‘rayeva Muhayyo Abduljalilovna**
O‘ZBEK VA INGLIZ SO‘ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....38
- 2. Raximova Dilfuza Masharip qizi.**
“XX–XXI ASR BRITANIYA ROMANLARIDA SHARQ VA G‘ARB BADIY TAFAKKURI SINTEZI”.....42
- 3. Baxtiyorov Asadbek Dilshod o‘g‘li.**
ANTONIO JENKINSON VA UNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI.....46
- 4. Ювашева Шоира Махаматовна**
ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРНЫХ НОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ.....48

PSIXOLOGIYA

- 1. Mashhura Sultonova Rustamboyevna.**
YETUKLIK YOSHIDAGI AYOLLARDA O‘Z-O‘ZIDAN QONIQISH DARAJASIGA PSIXOLOGIK RESURLAR VA QADRIYATLAR TIZIMINING TA‘SIRI.....52
- 2. Sherjanova Nodira.**
MIGRANT OILALARDA TARBIVLANAYOTGAN O‘SMIRLARDA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR VA EMPATIYA MUNOSABATI.....58

3. Odamova O'g'iljon Kenjayevna. SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI.....	63
--	----

TARIX


1. Egamberdieva Nigora Azadovna. Raxmatullaeva Azada. XORAZM VOHASIDA ILK DAVLATNING SHAKLANISHI JARAYONINING TAHLILI (ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR ASOSIDA).....	68
2. Abdullayev U.I. Kurshat Y. Satimov B. OROLBO'YIDA MUDOFA ISTEHKOMLARNING KELIB CHIQISHI BO'YICHA BA'ZI BIR MULOHAZALAR.....	73
3. Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi. OLTIN O'RDA DAVRIDA XORAZMDA IQTISODIY HAYOT.....	78
4. Бобождонов У. ҚЎЙҚИРИЛГАН ҚАЛЪА АНТИК ДАВР МАДАНИЙ МЕРОС МАРКАЗИ.....	82
5. Umidbek Abdalov Matniyazovich. Ibodullayeva Oymarjon Shavkat qizi. FROM THE HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KHIVA KHANATE AND THE RUSSIAN EMPIRE AT THE BEGINNING OF THE 18 th - 20 th CENTURIES.....	86

PEDAGOGIKA

1. Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING 4 K KOMPETENSIYALARINI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISH.....	91
2. Yunusxo'jayev Mustafo Zafarxo'ja o'g'li. NAJMIDDIN KUBRO PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI.....	96
3. Radjapova Feruza Abdullayevna. PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI VA ULARNI PEDAGOGIK TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH ALGORITMI...106	

Odamova O'g'iljon Kenjayevna,
Urganch davlat universiteti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b dotsent
ogiljonodamova@gmail.com

SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21008756>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada shaxsning boshqa odamlar bilan munosabatlarini ko'rib chiqish, o'zgartirish zarurligi bilan bog'liq holda, muammolarni atrofdagi insonlar bilan asosan, hulqning tashqi shakllarini o'zgartirish zarurligi bilan bog'liq holda kechadi degan fikrlar ilgari surilgan. Odamlarda atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlariga tegishli psixologik muammolar xususiyati bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Ular odamning shaxsiy va amaliy o'zaro munosabatlari, unga yaqin va ancha uzoq bo'lgan qarindoshlari hamda begonalar bilan o'zaro munosabatlariga ham taalluqlidir. Muammo yaqqol ifodalangan yosh farqiga ham ega bo'lishi mumkin. Odamning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlariga tegishli psixologik muammolarni yechimini topish xususiyatlari bo'yicha fikrlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: Mijoz, maslahat, hulq, antipatiya, hayotiy vaziyat, mu-nosabat, amaliyot, xarakter, muammo, tengdoshlar, katta, yosh, diapazon, kog-nitiv, mijoz, emotsional, yechim, o'zaro,vaziyat, sifat, beixtiyor, rivojlanish, shaxsiy, jihat.

ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ПСИХОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ: В статье высказывается мнение, что проблемы во взаимоотношениях человека с другими людьми возникают в связи с необходимостью изменения, в основном, внешних форм поведения, в связи с необходимостью изменения взаимоотношений с окружающими людьми. Психологические проблемы, связанные с взаимодействием людей с окружающими, могут различаться по своей природе. Они также касаются личных и практических отношений человека, его отношений с близкими и дальними родственниками, а также с незнакомцами. Проблема может также иметь ярко выраженный возрастной аспект. Научно проанализированы взгляды на особенности решения психологических проблем, связанных с взаимодействием человека с окружающими.

КЛЮЧОВИЕ СЛОВА: клиент, совет, поведение, антипатия, жизненная ситуация, отношение, практика, характер, проблема, сверстники, старший, возраст, диапазон, когнитивные способности, клиент, эмоциональный, решение, взаимный, ситуация, качество, произвольный, развитие, личный, аспект.

CAUSES OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN PSYCHOLOGY

ABSTRACT: This article argues that problems in relationships with other people are related to the need to review and change the individual's relationships with other people, and that problems with people around them are related to the need to change the external forms of behavior. People can vary in the nature of their psychological problems related to their interactions with others. They also refer to the personal and practical interaction of a person, his relationship with relatives close to him and much more distant, as well as with strangers. The problem can also have a pronounced age difference. The scientific analysis of the thoughts of a person on the characteristics of finding solutions to psychological problems related to his interactions with others is presented.

KEY WORDS: Keywords: client, consultation, Hulk, antipathy, life situation, mu-failure, practice, character, problem, peers, older, age, range, kog-nitive, client, emotional, solution, mutual, situation, quality, involuntary, development, personal, aspect.

KIRISH. Agarda shaxsiy muammolar odatda odamning ichki dunyosini tubdan o'zgartirish zarurligi bilan bog'liq bo'lsa, shaxslararo muammolar, atrofdagi insonlar bilan ularning hulqi tashqi shakllarini o'zgartirish zarurligi bilan bog'liq holda kechadi. Odamning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlariga tegishli psixologik muammolar xususiyati bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin. Ular atrofdagilar bilan odamning shaxsiy va amaliy o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, unga yaqin va ancha uzoq bo'lgan, masalan, qarindoshlari hamda begonalar bilan o'zaro munosabatlariga taalluqli bo'lishi mumkin. Bu muammo yaqqol ifodalangan yosh farqiga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, mijozning tengdoshlari yoki boshqa avlod, ancha yosh yoinki o'zidan ancha katta yoshli odamlar bilan o'zaro munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin. Shaxslararo munosabatlar muammolari turli jinsli odamlarga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Shaxslararo munosabatlar - bu ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasidagi o'zaro ta'sir, aloqa va bog'liqlik tizimi bo'lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

1. O'zaro ta'sir (Interaktivlik); Shaxslararo munosabatlar ikki tomonlama jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomonning xatti-harakati ikkinchi tomonni ta'sirlaydi va aksincha. Bu munosabatlar statik emas, balki dinamik tus oladi.
2. Kommunikativlik; Munosabatlar verbal (so'z, nutq) va noverbal (imo-ishora, mimika, ko'z qarashi, tana tili) vositalar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun muloqot mahorati munosabatlar sifatini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.
3. Sub'ektivlik va idrok; Har bir shaxs munosabatni o'z tajribasi, his-tuyg'ulari va dunyoqarashi prizmasidan baholaydi. Bir hil voqeani turli kishilar turlicha qabul qilishi mumkin-bu munosabatlarda nizolar va tushunmovchiliklarning asosiy sababi.
4. Davomiylilik va rivojlanish; Shaxslararo munosabatlar vaqt o'tishi bilan shakllanadi, o'zgaradi va rivojlanadi. Bosqichlari:
 - Tanishish
 - Yaqinlashish
 - Mustahkamlanish
 - Ba'zan-uzilib qolish yoki tugash
5. Emotsional rang; Munosabatlarda his-tuyg'ular markaziy o'rin egallaydi: sevgi, hurmat, ishonch, hamdardlik - yoki aksincha, nafrat, hasad, befarqlik. Emotsional komponent munosabat sifatini ko'p jihatdan belgilaydi.
6. Maqom va rol differentsiatsiyasi; Munosabatlar doimo ma'lum ijtimoiy rollar asosida quriladi: Vertikal (rahbar - bo'ysunuvchi, ota-ona - farzand). Bu rollar munosabat dinamikasini va muloqot uslubini belgilaydi.
7. Selektivlik (Tanlovlilik); Inson barcha odamlar bilan bir hil darajada munosabat o'rnatmaydi. Shaxslararo munosabatlar tanlov asosida shakllanadi -qiziqishlar, qadriyatlar, xarakter mos kelishi va hokazolar asosida.
8. Ijtimoiy-madaniy shartlanganlik; Munosabat normalari va shakllari madaniyat, millat, din va

jamiyat ta'sirida belgilanadi. Masalan, O'zbek madaniyatida katta yoshlilar bilan munosabatda hurmat va odoblilik alohida ahamiyat kasb etadi.

Kishining shaxslararo munosabatlar bo'yicha mavjud holati tashvishlantirsa, shunday holatda har doim unda o'z xarakteriga taalluqli shaxsiy mazmundagi muammosini ham aniqlash mumkin [4]. Bundan tashqari, bu ikkala muammoni amaliy hal etish usullari ko'p jihatdan bir-biriga o'xshashdir. Shunga qaramay, bu muammolarni alohida ko'rib chiqish kerak, chunki ular har doim shaxsiy mazmundagi muammoga qaraganda, birmuncha boshqacharoq hal qilinadi. Shu odamning boshqa odamlar bilan munosabatlarini boshqarish yo'li bilan hal etiladi. Bundan farqli ravishda o'z shaxsiy muammosini har doim odam individual va boshqa odamlar bilan bevosita aloqa qilmay ham hal etishi mumkin. Bundan tashqari shaxsiy va shaxslararo mazmundagi muammolarni hal etish usullarida katta farq mavjud. Mamlakatimiz olimlari bu xususda ilmiy bahs-munozara yuritganlar.

Adabiyotlar tahlili: O'zbek va Markaziy Osiyo psixolog olimlari. Ergash G'oziev (E. G'oziyev) Umumiy va ijtimoiy psixologiya, shaxslararo munosabatlar bo'yicha o'zbek tilidagi asosiy darsliklar muallifi. O'zbekistonda psixologiya fanini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. [3]. Azim Jabborov, O'zbek oilasidagi o'zaro munosabatlar, an'analar, qadriyatlar, erkak va ayol munosabati, shaxslararo munosabatning o'ziga xosligi va oila barqarorligining ijtimoiy-psixologik mezonlariga bag'ishlangan ilmiy asarlar muallifidir. Abu Ali Ibn Sino (980-1037)- tarixiy meros. Inson ruhiyati, his-tuyg'ular va shaxslararo ta'sir haqida "Tib qonunlari" asarida noyob fikrlar bayon etganlar. Odamlarning shaxsan bir-birini yoqtirmasligi-ancha keng tarqalgan holat hisoblanadi. Bu masalada ularni hayotiy tashvishlantiradigan muammo sifatida ko'proq yoshlar shikoyat bilan murojaat etadilar. Ushbu mavzuda maslahatlar o'tkazishda quyidagi holatlarni hisobga olish muhim bo'ladi. Agarda tasodifan yuzaga kelgan holatlar sababli odamlar to'g'risidagi bizning bilimlarimiz salbiy bo'lsa, keyinchalik bu odamlar bizga yoqmasligi mumkin.

Tadqiqot metodologiya: Psixologiyada shaxslararo munosabatlar sohasida ilmiy ish olib borgan taniqli olimlar-jahon miqyosida salmoqlidir. Xorijiy (jahon) psixolog olimlari, Zigmund Freyd (Sigmund Freud, 1856–1939) SHaxslararo munosabatlarning ongosti (bessoznatel'noe) jarayonlari orqali shakllanishini o'rgandi. Psixozanaliz nazariyasida insonlararo bog'liqlik va konfliktlarni tahlil qildi. Karl Rodjers (Carl Rogers, 1902–1987) SHaxslararo munosabatlarda empatiya, samimiylilik va shaxsni qabul qilish tushunchalarini asosladi. "Insonparvar psixologiya" maktabining asoschisi. Erik Bern (Eric Berne, 1910–1970) Transaksiya tahlili nazariyasini yaratdi- odamlar o'rtasidagi munosabatlarni "Ota-Bola-Katta" ego-hoлатlari orqali tushuntirdi. "Odamlar o'ynaydigan o'yinlar" asari mashhur. Kurt Levin (Kurt Lewin, 1890–1947) guruh dinamikasi va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy-psixologik muhitga bog'liqligini isbotladi. Maydon nazariyasi asoschisi. Abraham Maslou (Abraham Maslow, 1908–1970) Insonning ehtiyojlar ierarxiyasi piramidasida mansublik va muhabbatga bo'lgan ehtiyojni shaxslararo munosabatlar asosi sifatida ko'rsatdi. Garri Sallivan (Harry Stack Sullivan, 1892–1949) SHaxsiyatni faqat shaxslararo munosabatlar orqali tushunish mumkin degan interpersonal nazariyani ishlab chiqdi. Lev Viygotskiy (Lev Vygotsky, 1896–1934) SHaxs rivojlanishida ijtimoiy munosabatlar va yaqin rivojlanish zonasi nazariyasini yaratdi. Vladimir Myasishchev (V.N. Myasishchev, 1893–1973) SHaxsning munosabatlar psixologiyasi kontseptsiyasini ishlab chiqdi - shaxsni atrofdagilar va hayotga nisbatan munosabatlar tizimi sifatida tushuntirdi [7].

Aytib o'tilgan muammolarning ko'p jihatligi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkabligini ko'rsatadi. Bu muammolarning ko'pchiligini bu yerda biz alohida muhokama qilsak ham, biroq bu muammolar hayotda bir-biriga bog'liqligini va ko'pchilik hollarda kompleks hal etilishi zarurligini esdan chiqarmaslik kerak. Masalan, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda odatiy qiyinchiliklar yuzaga kelishi, ba'zi umumiy sabablari mavjud. Bu sabablarni muhokama qilish uchun odamlar o'zaro munosabatlari alohida turlariga xos bo'lgan xususiy va o'ziga xos qiyinchiliklar sabablari ham mavjudligini yodda saqlash zarur.

Tahlillar va natijalar: O'rganilgan muammolar guruhiga birinchi navbatda, mijoz bilan taxminan bir hil yoshdagi va bir-biridan ikki-uch yoshga farq qilgan odamlar bilan uning o'zaro munosabatlariga taalluqli muammolar kiradi. Shu bilan birga "tengdosh yoki bir avlod odamlari" tushunchasi ushbu holatda bolalar va katta yoshdagi odamlar uchun ham yoshi turli diapazonlarini

o‘z ichiga olmoqda. Masalan, agarda maktabgacha yoshdagi bolaning tengdoshlari odatda, uning o‘zidan bir yoshdan ko‘pga farq qilmasa, maktab yoshida tengdoshlar o‘rtasidagi farq ikki yoshga yetadi. Mos ravishda yigirmadan yo yigirma besh yoshgacha bo‘lgan yigit va qizlarni tengdosh deb atash mumkin, ya‘ni ular o‘rtasidagi yoshlar farqi endi besh yilgacha yetadi. Yoshi ulg‘aygan sari odamning psixologik rivojlanishi asta sekinlashadi va hatto tajribasi bir hilligi, psixologiyasi va hulqi o‘xshashligi odamlarni tengdosh sifatida baholash uchun asosiy mezon bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, u o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi [2].

Bunday holatda atrofdagi odamlar sizni yoqtiradilar, deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi. Inson uchun muhim bo‘lgan odamlar tomonidan mijozni yoqtirmasliklari sababini aniqlashga qaratilgan diagnostikani psixologik maslahatda qanday o‘tkaziladi?

Bu ishni mijozning o‘zi bilan maqsadga muvofiq savol-javob o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirish osonroq bo‘ladi. Undan tasodifiy emas, balki kerakli ma‘lumotlarni olish uchun mijozga ketma-ket quyidagi savollarni berish kerak bo‘ladi:

-qanday o‘zaro munosabatlar va kim yoqtirmasligi sababi ko‘proq sizni tashvishlantirmoqda?

-siz va ma‘lum odamlar bir-birlaringizni yoqtirmasliklaringiz qanday vaziyat va nimalarda ifodalanadi?

-Fikringizcha, bunga, sabab nima?

Agarda mijoz mana shu savollarga oson va aniq javob bersa, uning gaplarida keyingi bir yoki bir necha savollarga javoblar bo‘lsa, unda bu savollar mijozga berilmaydi. Bunday holatda mijozdan quyidagi savollarga ham aniq javob olish kerak bo‘ladi:

-avvalgi savollarga sizning javobingizda esga olingan odamlarning sizni yoqtirishlariga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsan siz yoki sizning hulqingiz bilan bog‘liq biron-bir sabablar bormi?

-Shu odamlarning qaysi tomonlari sizga yoqmaydi?

-Siz yoki boshqa bir odamga bog‘liq bo‘lmagan va sizning istagingizdan qat‘iy nazar siz va boshqa odamlar o‘rtalaringizdagi munosabatlarni yomonlashtiruvchi biror-bir hayotiy vaziyatlar bormi?

-Siz yuzaga kelgan vaziyatni o‘zgartirish uchun biron harakat qildingizmi?

- Qilgan harakatlaringiz natijalari qanday bo‘ldi?

Mana shu savollarga mijozning javoblarini diqqat bilan tinglab, psixolog-maslahatchi bu javoblarni tahlil qilish va suhbat davomida mijozning hulqini kuzatish natijasida mijozning muammosi mohiyati to‘g‘risida ma‘lum xulosaga keladi. Uni hal etish mumkin bo‘lgan yo‘llarini belgilaydi, ularni keyin mijoz bilan birgalikda muhokama qiladi. Mijoz berilgan barcha savollarga darhol aniq, lo‘nda va to‘la javob bera olishi qiyin bo‘lishini esda tutish kerak. Agarda shunday tomonlari bo‘lsa, uni antipatiya keltirib chiqarmaydigan qilib o‘z hulqini o‘zgartirishi kerak bo‘ladi. Boshqa odamning javobini kuzatish va bir vaqtning

o‘zida boshqa odamlarning ijobiy javoblarini keltirib chiqaradigan munosabatlar shakllarini odamlar bilan munosabatlar shaxsiy tajribasida aniqlab va mustahkamlab shaxsiy kommunikativ hulqi ustida tajribalar o‘tkazish kerak [7].

Xulosa: Xulosa shuki, Kishi hulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishni mo‘ljallab hayot sharoitlariga ta‘sir ko‘rsatishga urinish kerak. Muammoni har doim ham psixolog-maslahatchi mijozga berishi mumkin bo‘lgan maslahatlar yordamida amaliy hal qilib bo‘lmaydi. Bunday sabablar odatda, bir nechta bo‘ladi. Ulardan birini yo‘qotib, boshqa sabablarni yo‘qotishda istalgan natijaga erisha olmaslik mumkin, chunki shu holatda boshqa yana ham kuchliroq omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Psixologik maslahat o‘tkazishga kirishishdan avval shunday muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar odatiy tartibini bilib olish yaxshi bo‘ladi. Bularni bilish to‘g‘ri tashxis qo‘yishga, demak, mumkin bo‘lgan sabablarni tezroq aniqlash va yo‘qotishga yordam beradi.

Jamiyatda yoki guruhda o‘zini tutish qoidalarini bilmaslik mumkin. Bunday holatlar yuzaga kelganida, hulq qoidalarini buzgan odamni atrofdagi odamlar yoqtirmaydilar. [5]. Odamlar tasodifan bir-biriga unchalik yaxshi bo‘lmagan munosabatlarda bo‘lishga majbur etuvchi vaziyatga tushib qoladilar. Mana shu sababli ular beixtiyor bir-birlarida yomon taassurot qoldiradilar va shuning uchun bir-birlarini yoqtirishlari mumkin bo‘lmay qoladi. Bu holatni quyidagicha ta‘riflash mumkin. Aytaylik, sizning shaxsiy hayotingizda kimdir sizga ko‘p yomonliklar qilgan. Buning natijasida ushbu odamga nisbatan sizda mustahkam salbiy munosabat yuzaga kelgan. Ammo

keyinchalik sizga ko'p yomonlik qilgan odamga tashqi ko'rinishidan o'xshash boshqa odam uchraydi. Shu odamni siz faqatgina u sizga avvaldan yoqmagan odamga o'xshashligi uchungina yoqtirmaysiz. Odamlar o'rtasidagi bir-birini yoqtirmaslik mumkin bo'lgan tashqi sabablaridan yana biri bir odamning ikkinchi odam shaxsiga salbiy ijtimoiy ko'rsatmasi shakllanganligi bo'lishi mumkin. Bunday ijtimoiy ko'rsatma, uning asosiy tarkibiy qismlari sifatida kognitiv, emotsional va hulq tashkil etuvchilarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ko'rsatma ob'ekti to'g'risida odamning bilishlariga taalluqli hamda ob'ekt bilan bog'liq emotsional hissiyotlaridan iborat. Bundan tashqari mavjud ob'ektga nisbatan amalga oshirilayotgan amaliy harakatlarga ham bog'liq. Bilimlar va hissiyotlar o'z navbatida odamning hayot tajribasi, xususan, boshqa odamlarni bilish tajribasi ta'siri ostida shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. Odamova. O'.K "Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat". Darslik., "ZUXRO BARAKA BIZNES" MCHJ nashriyoti .Toshkent- 2026 yil. 404 bet.
2. Djumaniyazova M.X., Raximova E.R., Kutlimurotova N.R., Raximova Sh.A., Raximova G.I. Darslik. UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA. BROK CLASS SERVISI. Toshkent - 2025 yil
- 3.Х.К.Бекчонов,С.Д.Пиржонов, У .К,Одамова., "ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СЛУЖБА В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ и СОЦИАЛЬНОЙ Сферах."УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ.Тошкент-2026 г.170 ст.
- 4.Odamova.O'.K "Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik xizmat samaradorligini oshirishda artterapiyaning roli".Uslubiy qo'llanma."Khwarezm travel" bosmasi.Urganch-2026 yil.135 bet.
5. Odamova.O'.K. "SOS bolalar mahallalari tarbiyalanuvchilarida gender identifikatsiyasining rivojlanish xususiyatlari"."MONOGRAFIYA"."Ilm ziyo zakovat".2025 yil.80 bet
6. Z.T. Nishonova,SH.Asomuddinova "PSIXOLOGIK MASLAHAT". Toshkent."Fan va texnologiyalar nashriyoti".2021 yil.256 b
7. Z.T. Nishonova, G.K Alimova "PSIXOLOGIK XIZMAT PSIXOKOR-REKSIYA" .,Darslik.,Toshkent."Fan va texnologiyalar nashriyoti".2019 yil.435 b.

boshlab, ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish, refleksiv-metagognitiv o'sish va dunyoqarash transformatsiyasigacha bo'lgan izchil jarayonni qamrab oladi.

Birinchi bosqich – qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish. Bu bosqichda talaba ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tamoyillar sifatida qabul qiladi. Halollik, adolat, shukronalik, vafodorlik, mehribonlik, kamtarlik va sabr kabi sifatlarning mazmunini anglash talabaning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo'ladi. Agar qadriyatlar ongli ravishda o'zlashtirilmasa, ular xulq-atvorda barqaror namoyon bo'lmaydi. Shu sababli modelda qadriyatlarga oid muloqot, hikmatlar tahlili, badiiy-pedagogik matnlar, tarixiy misollar va refleksiv savollar muhim vosita sifatida qo'llanadi.

Ikkinchi bosqich – ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish. Bu bosqichda qadriyatlar amaliy ko'nikma va xulq-atvor sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Talaba axloqiy vaziyatlarda qaror qabul qiladi, o'z fikrini asoslaydi, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qiladi, adolati muloqotga kirishadi va o'z harakatining oqibatini baholaydi. Mazkur kompetensiya pedagogik kasb uchun ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi bosqich – ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirish. Najmiddin Kubro merosida insonning kamoloti jamiyat bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shaxsning ichki pokligi uning boshqalarga bo'lgan munosabatida, muloqot odobida, hamkorlikda, insonparvarlikda va fuqarolik mas'uliyatida ko'rinadi. Shu sababli talabalarda ijtimoiy-kommunikativ sifatlarni rivojlantirish ma'naviy tarbiyaning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv-metakognitiv rivojlanishni faollashtirish. Bu bosqichda talaba o'z xatosini ko'ra olish, uni tan olish, tuzatish, kelgusi rivojlanish maqsadini belgilash va o'z ustida ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Najmiddin Kubro ta'limotidagi tavba va o'zini tahlil qilish g'oyalari aynan shu bosqichning nazariy asosini tashkil etadi. Pedagogik amaliyotda bu bosqich portfoliolar, o'z-o'zini baholash varaqalari, refleksiv esselar va individual rivojlanish xaritalari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Beshinchi bosqich – dunyoqarash transformatsiyasi va komil inson idealiga yaqinlashish. Bu bosqichda talaba bilim, qadriyat, tajriba, refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni yagona hayotiy pozitsiyaga birlashtiradi. Komil inson ideali zamonaviy pedagogik ta'limda axloqiy mas'uliyatli, kasbiy kompetent, insonparvar, ijtimoiy faol va o'z ustida ishlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadi bilan uyg'unlashadi.

2-jadval. Ma'naviy rivojlanish blokida shakllantiriladigan ijobiy sifatlar va ularning salbiy muqobillari

Ijobiy sifat	Pedagogik mazmuni	Salbiy sifat	Tarbiyaviy xavf
Halollik	Rostgo'ylik, vijdonlilik va haqiqatga sodiqlik.	Yolg'onchilik	Ishonchning yo'qolishi va axloqiy beqarorlik.
Mas'uliyat	Vazifa va burchni ongli bajarish.	Mas'uliyatsizlik	Burchga loqaydlik, kasbiy sustlik.
Insonparvarlik	Boshqalarga hurmat, mehr va yordamga tayyorlik.	Shafqatsizlik	Inson manfaatiga befarqlik.
Kamtarlik	O'zini yuqori qo'yimaslik, oddiylik.	Kibr	Boshqalarni mensimaslik.
Sabr-toqat	Qiyinchilikni matonat bilan yengish.	Sabrsizlik	Shoshqaloqlik, hissiy beqarorlik.
Bag'rikenglik	Turli fikr va qarashlarni hurmat qilish.	Murosasizlik	Nizo va inkor kayfiyati.
O'zini nazorat qilish	Nafs, hissiyot va xatti-harakatni boshqarish.	Nafsga berilish	Hirs va impulsiv qarorlar.
Ilmga intilish	Bilim olish va o'zini rivojlantirishga ehtiyoj.	Johillik	O'rganishga befarqlik.